



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 254 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamisheva	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	



MAKTABGACHA TA'LIMDA TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGNING KOMPETENSIYASI

Eshmuratova Gauxar Maxsudovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari
kafedrası katta o'qituvchisi
Nukus shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston



Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kasbiy kompetensiyasi, uning mazmun-mohiyati hamda ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot doirasida "kompetensiya" tushunchasining mazmuni ochib berilib, pedagogik faoliyatda kompetentlikning asosiy turlari – didaktik, psixologik, kommunikativ, metodik, innovatsion va axloqiy kompetensiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning ustuvor tamoyillari – bola markazli yondashuv, o'yin asosida o'qitish, integrativ yondashuv, hamkorlik muhiti hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari asoslab berilgan. Bundan tashqari, kompetent pedagogning maktabgacha ta'lim sifatini oshirishdagi roli, bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ta'lim jarayoni, pedagog kompetensiyasi, kasbiy kompetentlik, samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, bola markazli yondashuv, ijodkorlik, muloqot madaniyati.

Abstract: This article examines the professional competence of a teacher in the effective organization of the educational process within the preschool education system, highlighting its content, essence, and significance from a scientific and theoretical perspective. The study clarifies the concept of "competence" and analyzes the main types of professional competence in pedagogical activity, including didactic, psychological, communicative, methodological, innovative, and moral competencies. Furthermore, the article substantiates the key principles of effective organization of the preschool educational process, such as the child-centered approach, play-based learning, integrative methodology, cooperative interaction, and the use of innovative technologies. In addition, the role of a competent teacher in improving the quality of preschool education and in fostering independent thinking, creativity, and communication culture among children is scientifically justified.

Key words: preschool education, educational process, teacher competence, professional competence, effectiveness, innovative technologies, child-centered approach, creativity, communication culture.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически раскрывается профессиональная компетенция педагога, ее содержание, сущность и значение в эффективной организации образовательного процесса в системе дошкольного образования. В рамках исследования уточняется понятие "компетенция" и анализируются основные виды профессиональной компетентности в педагогической деятельности – дидактическая, психологическая, коммуникативная, методическая, инновационная и нравственная компетенции. Кроме того, обоснованы ключевые принципы эффективной организации процесса дошкольного образования: личностно-ориентированный (ребенок-центрированный) подход, обучение на основе игры, интегративный подход, сотрудничество и использование инновационных технологий. Также научно аргументирована роль компетентного педагога в повышении качества дошкольного образования и формировании у детей самостоятельного мышления, творческих способностей и культуры общения.

Ключевые слова: дошкольное образование, образовательный процесс, компетенция педагога, профессиональная компетентность, эффективность, инновационные технологии, личностно-ориентированный подход, творчество, культура общения.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning eng muhim bo'g'inlaridan biridir, chunki aynan shu davrda bola shaxsining asosiy sifatleri, qiziqishlari, dunyoqarashi va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Bugungi globallashuv sharoitida bolalarni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash maktabgacha ta'lim tizimining ustuvor vazifasiga aylangan. Mazkur vazifani amalga oshirishda, eng avvalo, pedagogning kasbiy kompetensiyasi hal qiluvchi o'rin tutadi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish faqatgina mashg'ulot o'tkazish bilan cheklanmaydi, balki bolalar rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish, o'yin orqali o'qitish, ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni olib borish hamda bolada o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyani shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli zamonaviy pedagogdan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki kasbiy kompetensiyalar majmuasiga ega bo'lish talab etiladi.

"Kompetensiya" atamasi ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilib, muayyan sohada yetuk mutaxassis bo'lish, o'z faoliyatini puxta bilish va uni amaliyotda samarali qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Pedagogik kompetensiya esa o'qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, shaxsiy fazilatlari hamda kasbiy qadriyatlari birligi asosida ta'lim-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish layoqatini ifodalaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagogning kompetensiyasi, avvalo, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini chuqur bilish, ularning rivojlanish ehtiyojlariga mos ta'lim usullarini tanlay olish, o'yin, muloqot va ijodkorlik faoliyatini uyg'unlashtira olish kabi jihatlarda namoyon bo'ladi. Kompetensiyaga ega pedagog bolalarga mehr va hurmat bilan yondashadi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga amal qiladi, ta'lim jarayonini interfaol usullar asosida tashkil etadi, o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib, takomillashtirib boradi hamda ota-onalar va jamiyat bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Demak, pedagog kompetensiyasi bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlarning uyg'unligi bo'lib, u ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limda samarali ta'lim jarayoni bola faol ishtirok etadigan, o'rganish jarayonida o'zini erkin his qiladigan, qiziqarli, interfaol va natijaga yo'naltirilgan ta'limni anglatadi. Pedagog bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning bilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi, tafakkuri, nutqi va ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etadi. Bunda o'yin, tajriba, muloqot, rasm chizish, qo'shiq aytish, raqs va sahnalashtirish kabi faoliyat turlari muhim o'rin tutadi.

Samarali ta'lim bola markazli yondashuv asosida tashkil etilib, har bir faoliyat bolaning qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqib rejalashtiriladi. O'yin asosida o'qitish bola uchun tabiiy o'rganish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Integrativ yondashuv doirasida barcha rivojlantiruvchi yo'nalishlar – nutq, tafakkur, harakat, san'at va tabiatshunoslik – o'zaro uzviy bog'liqlikda amalga oshiriladi. Hamkorlik tamoyili asosida pedagog, bola va ota-onaning faol ishtiroki ta'minlanadi. Innovatsion yondashuv esa zamonaviy texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda kreativ metodlardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Aynan ushbu tamoyillarni to'g'ri va izchil qo'llay olgan pedagog ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga erishadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogning kasbiy kompetensiyasi masalasi so'nggi yillarda o'zbek pedagogika ilmda dolzarb yo'nalishlardan biriga aylangan. Murodova G. tomonidan 2022-yilda nashr etilgan "Pedagogik kompetensiya va innovatsion yondashuvlar" asarida pedagog kompetensiyasi zamonaviy ta'lim paradigmasi asosida talqin qilinib, uning tarkibiy tuzilmasi hamda innovatsion faoliyat bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Muallif kompetensiyani faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikma va refleksiv tahlil bilan uyg'un holda namoyon bo'ladigan kasbiy sifat sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv maktabgacha ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning metodik va innovatsion tayyorgarligi hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi.

Xodjiev N. va Rahmonova D.ning 2021-yilda chop etilgan "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" darsligida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining psixologik-pedagogik asoslari keng yoritilgan bo'lib, ta'lim jarayonini tashkil etishda yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan. Mualliflar bola markazli yondashuv, o'yin faoliyati hamda integrativ ta'lim tamoyillarini maktabgacha ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy shart sifatida ko'rsatadilar. Ushbu ilmiy qarashlar pedagog kompetensiyasining psixologik va didaktik komponentlarini chuqur anglash zaruratini tasdiqlaydi.

Karimova Z.ning 2023-yilda nashr etilgan "Pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiya" asarida pedagogning kasbiy yetukligi, shaxsiy fazilatlari va mahorati o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi. Muallif pedagogik mahoratni kompetensiyaning amaliy namoyon bo'lish shakli sifatida baholaydi. Qayumova S.X.ning "Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya" nomli asarida esa tarbiyaviy jarayonda estetik yondashuvning ahamiyati ochib berilib, pedagogning ijtimoiy va axloqiy kompetensiyasi bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda muhim omil ekani ta'kidlanadi. Mazkur tadqiqotlar maktabgacha ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning ko'p qirrali kasbiy kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kasbiy kompetensiyasini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagoglar faoliyatini kuzatish, yarim tuzilgan intervyular o'tkazish hamda so'rovnoma asosida empirik ma'lumotlar to'plash orqali



olindi. Shuningdek, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy-metodik manbalar tahlil qilindi. Kuzatish jarayonida pedagoglarning mashg'ulotni rejalashtirish, interfaol metodlardan foydalanish va bolalar bilan muloqot o'rnatish ko'nikmalari baholandi. So'rovnoma natijalari miqdoriy usulda qayta ishlanib, foiz ko'rsatkichlari asosida umumlashtirildi, intervyu ma'lumotlari esa mazmuniy tahlil (kontent-tahlil) usulida saralandi. Olingan natijalar qiyosiy va tizimli tahlil asosida talqin qilinib, pedagog kompetensiyasining ta'lim samaradorligiga ta'siri aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogning kasbiy kompetensiyasi bir nechta asosiy turlarga bo'linadi va ularning har biri pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik kompetensiya ta'lim maqsadlarini belgilash, o'quv dasturi mazmunini tanlash, o'qitish metodlarini bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirish hamda ta'lim natijalarini baholash qobiliyatini ifodalaydi. Metodik kompetensiya mashg'ulotlarni puxta rejalashtirish, pedagogik texnologiyalarni tanlash va interfaol metodlardan samarali foydalana olishni nazarda tutadi. Psixologik kompetensiya bolaning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy holati va hissiy ehtiyojlarini anglash hamda unga individual yondashuvni ta'minlash bilan bog'liqdir. Kommunikativ kompetensiya bola, ota-ona va hamkasblar bilan ijobiy muloqot o'rnatish, bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion kompetensiya yangi metod va texnologiyalarni izlab topish, ularni amaliyotga joriy etish hamda raqamli savodxonlikni rivojlantirishni qamrab oladi. Ijtimoiy va axloqiy kompetensiya esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, tarbiyaviy jarayonda axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilishni anglatadi. Mazkur kompetensiyalar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi pedagogning kasbiy yetukligini belgilaydi.

Zamonaviy pedagog o'z kasbiy salohiyatini doimiy ravishda oshirib borishi zarur, chunki ta'lim jarayonidagi yondashuvlar, metodlar va texnologiyalar tez sur'atlarda yangilanib bormoqda. Shunday sharoitda pedagog faqat yangiliklarni muntazam o'zlashtirish orqaligina o'z faoliyatida yuqori samaradorlikka erisha oladi. Pedagog kompetensiyasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari qatoriga malaka oshirish kurslari va seminarlar orqali yangi bilimlarni egallash, pedagogik tajriba almashish hamda ilg'or o'qituvchilarning tajribasini o'rganib, amaliyotga tatbiq etish kiradi. Shuningdek, innovatsion o'qitish texnologiyalarini, jumladan klaster, aqliy hujum, loyiha metodi va roli o'yinlardan foydalanish, o'z-o'zini rivojlantirish – o'qish, tahlil, refleksiya va o'z faoliyatini baholash – muhim ahamiyatga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish, ya'ni kompyuter, planshet, interaktiv doska va multimedia vositalaridan samarali foydalanish ham pedagogning kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ijodkorlikni rivojlantirish, bolalar bilan yangi va noodatiy mashg'ulot shakllarini ishlab chiqish ham kompetensiyani mustahkamlovchi omillardan biridir. Pedagog o'z ustida izchil ishlagan sari uning faoliyati yuksak natijalarga olib keladi, bolalarda esa o'rganishga bo'lgan qiziqish ortadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetent pedagog bola rivojlanishining bosh yo'l boshchisi hisoblanadi. U faqat bilim beruvchi emas, balki bolaning ijodkorligini yuzaga chiqaruvchi, mustaqil fikrlashini rag'batlantiruvchi va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlovchi shaxsdir. Bunday pedagog bolalarga do'stona va mehr bilan yondashadi, ularni faol o'yinlar, tadqiqotlar va loyihalar orqali o'rganishga undaydi, har bir bolaning muvaffaqiyatini qadrlaydi va rag'batlantiradi, ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'ladi hamda ta'lim jarayonini ijodkorona tashkil etadi. Natijada bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muloqot madaniyati va o'qishga qiziqish shakllanadi. Shu bois kompetent pedagog maktabgacha ta'lim sifatining eng muhim kafolati hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish bevosita pedagogning kasbiy kompetensiyasiga bog'liqdir. Kompetensiyaga ega pedagog o'z ishiga ijodkorlik bilan yondashadi, bolalarni markazga qo'yadi hamda har bir bolaning rivojlanish sur'atini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida faoliyat yuritadigan, zamonaviy fikrlaydigan, o'z kasbini sevuvchi va ijtimoiy faol pedagoglar maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ana shunday pedagoglarga jamiyatimizda barkamol, bilimli, vatanparvar va ijtimoiy mas'uliyatli avlodni tarbiyalab yetishtira oladi. Demak, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning asosi pedagogning kasbiy kompetensiyasi, mahorati va shaxsiy yetukligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. Murodova G. Pedagogik kompetensiya va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2022.
4. Xodjiev N., Rahmonova D. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2021.
5. Karimova Z. Pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiya. – Toshkent, 2023.
6. Qayumova S.X. Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.